

Forester xonimning ilk detektiv qissasi "Axilles haykali" chop etilganda u ellik yetti yoshni qoralab qo'ygan, bir necha asar muallifi edi. Biroq shunga qaramay uning iste'dodi mahsullari oddiy o'quvchilargacha yetib bormagan, kitoblarini tanqidchilar nuqul maqtashsa-da, ular sotilmay turib qolayotgandi.

Forester xonim siyosatga juda qiziqar, hatto parlament a'zosi bo'lish haqida ham o'ylardi. Faqat nomzodini ko'rsatadigan partiyani tanlashda muammoga duch kelardi.

Xonimning har shanbada uyushtirib turadigan o'tirishlariga talabgorlar ko'pligiga qaramay, faqat sanoqli kishilargina uning mehmonlari qatoridan joy olishga musharraf bo'lardi.

Bu mehmondorchilikni buzadigan yakka-yu yagona shaxs Forester xonimning eri janob Albert Forester edi. Xonimning davradoshlari unga zerikarli odam, deb qarashar, Forester xonim nima jin urib bu kimsaga turmushga chiqqan o'zi, deb bir-birlaridan so'rab turishardi. Albert Foresterga ular filatelist, deb laqab qo'yishgan. Sababi bir safar qaysidir yosh yozuvchi uning marka yiQishga qiziqishini aytgandi.

Sizga ochiQini aytsam, Albert oddiygina, o'rtamiyona tadbirkor edi. Egniga kiygan kamzullari doim ohori to'kilib, eskirganga o'xshab ko'rinar, o'zi ham boshini solib, ma'yus tortib o'tirar va hech qachon eshitishga arziguli biror o'Qiz gap aytmasdi. Lekin Forester xonim eriga mehribon edi. Albert yonida o'tirganda uning ustidan kulmoqchi bo'lganlarni uyaltirib qo'yishni xonim yaxshi uddalardi.

Forester xonimning adabiy faoliyatida jiddiy burilish yasagan voqea u uyushtirgan eng jonli o'tirishlardan biri yakunlay deb qolganda sodir bo'ldi. Mehmonlar davra qurib o'tirishar, Forester xonim esa o'rtada. Xonim maroq bilan gapirar, boshqalar ora-sira savol tashlab uning ma'ruzasini jon quloqlari bilan tinglayotgandi. Bir mahal kutilmaganda qarsillagan tovush chiqib o'Qir narsa qulaganday bo'ldi, keyin tashvishli ovozlari eshitildi.

- Nima bo'ldi, Karter? - so'radi Forester xonim xizmatkoridan. - Uy qulayaptimi?

- Bu yangi oshpazning qutisi, mem, - dedi xizmatkor. - Yuk tashuvchi qutini olib kirayotib tushirib yubordi. Shunga oshpazning jahli chiqayapti.

- Yangi oshpaz deganingiz nimasi?

- Missis Bulfinch bugun kunduz ketib qoldi, mem, - dedi xizmatkor.

- Janob Foresterning bundan xabari bormi? - so'radi xonim. Darvoqe, xo'jalik ishlarini xonimning eri nazorat qilardi. - Janob Forester kelganda unga gapim borligini aytg.

- Janob Forester ketgan, mem, - javob qildi xizmatkor. - Uni so'raganingizda mana bu xatni berib qo'yishimni buyurgandi.

Xizmatkor xonadan chiqdi va Forester xonim xatni ochdi. Xonimning dugonalaridan biri menga: xatni o'qiyotgan missis Foresterning avzoyiga qarab, oshpazning ketib qolishiga yo'l qo'ygani uchun jazolanishdan qo'rqqan sho'rlik Albert endi o'zini Temza daryosiga tashlasa kerak, degan xayolga bordim, deb aytdi.

Xatni o'qib Forester xonim:

- Oh, bu qanday xiyonat!? Qanday dahshat! - deb chinqirib yubordi.

- Nima gap Forester xonim? - so'radi uning xodimi janob Simmons.

- O'qing, - dedi xonim. - Bir o'qib ko'ring.

Ko'zi xiralashib qolgan janob Simmons ko'zoynagini taqdi va xatni yuziga yaqin keltirib o'qidi:

"Azizam,

Bulfinch xonim vaziyatni o'zgartirish ilinjida bu yerdan ketishga qaror qildi. Usiz qolishni xohlamaganim uchun men ham ketayapman. Adabiyotdan to'ydim, san'atdan ham charchadim. Bulfinch xonimni nikoh masalasi qiziqirtmaydi. Biroq ajrashmoqchi bo'lsang, u menga turmushga chiqishga rozi.

Bulfinch xonimning o'rniga yangi oshpaz yolladim va u senga ma'qul bo'ladi, deb umid qilaman. Bulfinch xonim ikkovimiz Kenington Roud, 411-uy yashayapmiz.

Albert"

Og'ir sukunatni janob Simmonsning: "Eringizni ortga qaytarishingiz kerak", degan gapi buzdi.

- Uning basharasiga qarashni ham istamayman! - dedi Forester xonim hammaga eshittirib. Lekin janob Simmons pinagini ham buzmay gapini davom ettirdi:

- Yigirma yildan beri sizning xodimingizman. Meni qadrdon do'stingizday ko'rasiz. Sizga ochig'ini aytishim kerak, yozayotgan kitoblarim bilan tirikchilik qilaman, deb o'ylasangiz yanglishasiz.

- Erimni deb oshpaz bilan yoqalashmayman-ku, axir! - dedi missis Forester fiQoni falakka chiqib.

- Shuni aytmoqchi bo'lib turuvdim o'zi, - dedi Simmons zarda bilan. - Mashhur raqqosami yoki biror zodagon ayolning sizga tishi o'tmaydi-yu, lekin oshpaz dabdalangizni chiqaradi.

- Xodimingiz to'Qri aytayapti, - dedi mehmonlardan biri. - Filatelistni ortga qaytarishingiz kerak.

- Ertaga borib, eringiz bilan uchrashing, xo'pmi? - dedi janob Simmons. Forester xonim bir oz jim turdi-da, nihoyat dedi:

- Xo'p, lekin o'zim uchun emas, ijodim uchun!

Ertasiga Forester xonim Kennington Roudga yo'l olganida kun yarimlagandi. Janob Simmons telefonda manzilni miridan sirigacha tushuntirgani bois xonim Albert yashayotgan uyni qiynalmay topdi. Qo'nQiroqni bosgan edi eshikni sobiq oshpazi ochdi.

- Xayrli kun, Bulfinch, - dedi Forester xonim. - Xo'jayiningni ko'rmoqchi edim.

Missis Bulfinch bir soniya angrayib turdi-da, keyin xonimni ichkariga boshladi.

- Kiravering, mem, Albert, seni ko'rgani Forester xonim kelibdi.

Xonim tez-tez yurib ichkariga kirdi. Albert kamin yonidagi eskirgan oromkursiga yastanib kechki gazeta o'qiyotgandi.

- Qalaysan, azizam? - dedi u gazetani bir chetga qo'yarkan, xush kayfiyatda. - Yaxshi yuribsanmi?

- O'tiring, mem, - taklif qildi stul keltirgan Bulfinch xonim.

- Albert, sen bilan yolg'iz gaplashsam maylimi? - so'radi xonim o'tirgach.

- Afsuski buning iloji yo'q, - dedi Albert. - Chunki mening Bulfinch xonimdan yashiradigan sirim yo'q.

- O'zing bilasan.

- Xo'sh, azizam, menda nima gaping bor edi? - so'radi Albert.

Forester xonim unga qarab jilmaydi.

- Albert, men seni biror narsada ayblamayman. Bilaman, bo'lib o'tgan voqeada sening aybing yo'q, sendan xafa emasman. Lekin har qanday hazilning ham chegarasi bo'ladi. Seni uyga olib ketgani keldim.

- Vaqtingni bekorga o'tkazayapsan-da, azizam, - dedi Albert. - Endi meni hech narsa sen bilan yashashga majbur qilolmaydi.
- Men bilan baxtli emasmiding? - so'radi Forester xonim ko'ngli ozor chekkanini sezdirmaslik uchun past ovozda.
- Azizam, turmush qurganimizga o'ttiz yetti yil bo'ldi. Bu juda uzoq muddat, to'g'rimi? Sen, aslida, yaxshi ayolsan, lekin biz bir-birimizga to'g'ri kelmaymiz. Sen adabiyot deb yashayapsan, men esa yo'q. Sen san'atni yaxshi ko'rasan, men esa unga qiziqmayman.
- Lekin seni san'atga, adabiyotga qiziqtirish uchun shuncha yil qo'limdan kelguncha urindim, - dedi missis Forester.
- Gaping to'g'ri, e'tiborsizligim uchun faqat o'zimni ayblashim mumkin, xolos. Lekin ochig'i, sen yozayotgan kitoblar menga yoqmaydi. Atrofingdagi odamlar ham yoqmaydi. Senga bitta sirni aytaymi, azizam? Sen uyushtirayotgan mehmondorchiliklaringda ust-boshimni yechib tashlab, tomosha qilgim keladi - qani, keyin nima bo'larkan, shuni bilishni xohlayman.
- Uyalmaysanmi, Albert? - dedi Bulfinch xonim. - Buning uchun kelishgan qaddu qomat bo'lishi kerak odamda!
- Bulfinch xonim ishdan bo'shishimni xohlayapti, - gapini davom ettirdi Albert. - Bugun sheriklarim bilan ish masalasini muhokama qildik, hamma ikir-chikirlarni hal qilishga rozi bo'lishdi. Ular mening ulushimni sotib olishadi, shunda to'qqiz yuz funtga yaqin foyda olaman. Uchchovimizga yiliga uch yuz funtdan tegadi.
- Bu pulga men qanday yashayman? - dedi missis Forester miyasiga kelgan so'nggi bahonani ishga solib.
- Axir, sening o'tkir qalaming bor-ku, azizam.
- Kitoblarimdan bir tiyin foyda kelmayotganini sen yaxshi bilasan. Noshirlar ularni chiqarib, nuqul zarar ko'rishayotgan ekan. Shu payt kutilmaganda Bulfinch xonim savol berdi:
- Detektiv asar yozsangiz bo'lmaydimi?
- Forester xonim xoxolab kulib yubordi.
- Men-a?! - xitob qildi u. - Qanday bema'ni taklif! Olomonning ko'nglini olish haqida hecham o'ylamaganman. Shu yoshga kirib biror marta detektiv kitob o'qimaganman hatto.
- Yaxshi taklif, - dedi Albert.
- Detektiv asarlar mening dilim, - dedi missis Bulfinch. - Kutubxonada tungi ko'ylakda o'lib yotgan ayol haqida yozing, mazza qilib o'qiyman.
- Shaxsan menga Gayd parkda, qo'lida tilla soati bor, o'ldirib ketilgan obro'li jentlmen haqidagi asar yoqadi, - dedi Albert. - Obro'li jentlmen, albatta, kitobxonni qiziqtirib qo'yadigan biror-bir sabab tufayli o'ldiriladi-da.
- Nima demoqchiligingni tushunib turibman, - dedi Bulfinch xonim. - O'sha jentlmen qandaydir muhim sirni bilgan. Qotillar unga shu sirni aytmasang o'ldiramiz, deyishgan. Jentlmen ulardan qochib qutulolmagan.
- Biz senga shunga o'xshash juda ko'p voqealarni gapirib berishimiz mumkin, azizam, - dedi Albert Forester xonimga mehribonlik bilan jilmayib. - Men yuzdan ortiq detektiv kitobni o'qiganman.
- Sen-a?
- Missis Bulfinch bilan inoqligimizga ham shu kitoblar sabab bo'lgan. O'qib tugatgach, ularni xonimga berardim. Bilasanmi, bir-biriga o'xshash ikkita detektiv kitobni topolmaisan. Qiyoslasang biri biridan farq qiladi.
- Forester xonim o'rnidan turdi.
- Oramizda qanday jarlik borligini endi tushundim, - dedi u xiyol titragan ovozda. - O'ttiz yildan beri ingliz adabiyotining eng oldi vakillari davrasida bo'lib, shuncha vaqt faqat detektiv roman o'qigansiz! Ketib qolganing sababini o'zimcha o'ylab, seni uyga qaytarish uchun kelgandim bu yerga. Endi niyatimdan qaytdim.
- To'g'ri qilasan, azizam, - dedi Albert. - Lekin detektiv yozish haqida, albatta, o'ylab ko'rgin.
- Forester xonim zinadan pastga tushdi. Bulfinch eshikni ochib, taksida ketasizmi, deb so'raganda, u bosh chayqadi:
- Tramvayda ketaman.
- Janob Foresterga o'zim ko'z-quloq bo'laman, xonim, xavotir olmag, - dedi Bulfinch Forester xonimni tramvay bekatiga kuzatib borarkan. - Uyga qarash, ovqat pishirish qo'limdan keladi. Albert o'ziga biror-bir mashQulot topadi, albatta. Pochta markalarini yiQish haqida o'ylayotgandi.
- Forester xonim nimadir demoqchi bo'ldi-yu, tramvay kelganini ko'rib, unga chiqdi.
- Xonim soat necha bo'lganini so'ramoqchi bo'lib qarshisida o'tirgan odamga qaradi va seskanib ketdi. Chunki ro'parasida tilla soat taqqan obro'li jentlmen o'tirardi. Bu Albert Gayd parkda o'lib yotganini gapirgan jentlmenning o'zginasi edi. Jentlmen haydovchidan tramvayni to'xtatishni so'radi va tushib tor, qorong'i ko'chaga kirib ketdi. Nega? Nima uchun? Gayd park bekatida xonim kutilmaganda tramvaydan tushishga qaror qildi. U endi bir joyda o'tira olmasdi. Yayov yurgisi kelayotganini his qilayotgandi. Axilles haykali yonidan o'tayotganida bir daqiqa to'xtab uni tomosha qildi. Forester xonimning yuragi tez urayotgandi. Edgar Alan Podek yozuvchi ham detektiv romanlar yozgan-ku, axir...
- Forester xonim nihoyat uyiga kelib, eshikni ochganida dahlizdagi bir talay shlyapalarga ko'zi tushdi. Ulfatlari jamuljam edi. Xonim mehmonxonaga kirdi.
- Oh, bechoraginalar, men sizlarni shuncha vaqt kuttirib qo'ydimmi? - dedi u. - Choy ham ichmadinglarmi?
- Xo'sh? - deyishdi mehmonlar. - Eringizni olib keldingizmi?
- Azizlarim, sizlarga ajoyib bir yangilik aytmoqchiman. Men detektiv kitob yozmoqchiman.
- Mehmonlar o'Qizlarini ochganicha anqayib xonimga qarab qolishdi.
- Detektivni haqiqiy san'at darajasiga ko'tarmoqchiman. Bu fikr Gayd parkda miyamga kelib qoldi. Qissa qotillik haqida bo'ladi. "Axilles haykali" deb nom qo'yaman!
- Albert nima bo'ldi? - so'radi yosh yozuvchi.
- Albert? - hayron bo'ldi missis Forester. - Qandaydir ish bilan Albertning yoniga borganim yodimda. Lekin nima uchun borganimni hech eslolmayapman.
- Uni ko'rdingizmi o'zi?
- Aytyapman-ku, azizam. U esimdan chiqib ketdi.
- Forester xonim kulib yubordi.
- Albert oshpazi bilan yashayversin. Albert haqida bosh qotirishga endi vaqtim yo'q. Detektiv asar yozmoqchiman.
- Ajoyib ayolsiz-da! - deyishdi mehmonlar.

This is not registered version of TotalDocConverter